

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

AKT sohasida KASB TA’LIMI FAKULTETI

“GUMANITAR FANLAR” KAFEDRASI



**“YANGI O‘ZBEKISTONDA AXBOROTLASHGAN JAMIYATNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: MUAMMOLAR VA
IMKONIYATLAR” ILMIY-NAZARIY ANJUMAN**
(Toshkent sh, 2024 yil, 15 may)

**“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО
ОБЩЕСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И
ВОЗМОЖНОСТИ”**
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
(г.Ташкент, 2024 год, 15 май)

KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

Toshkent – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 24-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2024-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to‘g‘risida”gi 76-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 2024 yil 15 may kuni Toshkent Axborot Texnologiyalar Universitetida ilmiy-nazariy anjuman o‘tkazildi.

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA AXBOROTLASHGAN JAMIYATNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: MUAMMOLAR VA
IMKONIYATLAR”**

ILMIY-NAZARIY ANJUMAN

MAQOLA VA TEZISLARI TO‘PLAMI.

Toshkent Axborot Texnologiyalar Universiteti.

2024-yil 15-may

Konferensiya materiallari to‘plamida globallashuv davrida fan, ta’lim va ishlab chiqarishning tutgan o‘rni va ro‘li, ushbu jarayonlarning o‘zaro hamkorligi masalalarining dolzarb muammolari, ularning yechimlari borasida sohaning yetuk mutaxassislari tomonidan fikr-mulohazalar taqdim etilgan. Qolaversa, globallashuv davrida ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan ilmiy-amaliy mavzudagi tadqiqotlar, ishlab chiqarish sohalaridagi eng yangi innovatsion texnologiyalarni o‘zida jamlagan ilmiy-amaliy sohalaridagi ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu to‘plam ilm olamining dolzarb fikrlari va innovatsion g‘oyalarining o‘ziga xos chorrahasidan biri deb fikr bildirish mumkindir. O‘tkazilgan bu ilmiy-amaliy anjumanda O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanayotgan professor-olimlar va ilmiy tadqiqotchilar faol ravishda qatnashdilar.

Ilmiy-amaliy konferensiyaning mavqeini yanada oshirishda mahalliy va xorijiy oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari salmoqli hissa qo‘shdilar. Konferensiya ishida faol qatnashgan xorijiy oliy oq‘uv yurtlari professor-o‘qituvchilari mamlakatimiz olimlari bilan o‘zaro fikr almashuv jarayonini yuqori saviyada o‘tishiga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shdilar.

Xorijiy davlatlar bilan olib borilgan xalqaro hamkorlik va ular bilan globallashuv davridagi ilm-fan sohasida almashish jarayonlari oliy ta’limda, fan va ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Ushbu konferensiya materiallari nazariy ishlanmalardan tortib amaliy yechimlargacha bo‘lgan keng ko‘lamli tadqiqotlarni o‘z ichiga olishi bilan alohida ajralib turadi, bu esa ushbu sohadagi yondashuv va yo‘nalishlarning xilma-xilligini namoyish etadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, ushbu ilimiy-amaliy konferensiya globallashuv davrida oliy ta’limni yanada rivojlantirish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlarga qiziqqan har bir inson uchun ilmiy-amaliy tomondan judayam foydali to‘plam bo‘ladi. To‘plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni hamda sifatiga mualliflar mas’uldir.

TASHKILIY QO'MITA A'ZOLARI:

Rais: Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar univesiteti rektori. Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Rais o'rinbosari: Tashev Komil Axmatovich. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar univesiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.

A'zolar: Xakimov Alisher Olimjonovich. "Gumanitar fanlar" kafedrası mudiri. F.f.f.d, dotsent.

Tulenova Gulmira Jandarovna. "Gumanitar fanlar" kafedrası professori, falsafa fanlari doktori.

Maxkamova Nodira Raxmanovna. "Gumanitar fanlar" kafedrası professori, tarix fanlari doktori.

Sanaqulov Abror Nazarovich. "Gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori.

G'ulomov Ilhomjon Komiljonovich. "Gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Sagdullayeva Dilbar Shuxratovna. "Gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna. "Gumanitar fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi.

Usmanov Bekzod Xasanbekovich. "Gumanitar fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi.

1. Д.Худайназарова Тўқимачилик саноати корхоналарининг яшил иқтисодиёт доирасидаги рискларини стратегик трансформациялаш истиқболлари, 2023
2. Д.Худайназарова Тўқимачилик саноати корхоналарини бошқаришдаги риск ва механизмларнинг назарий асослари - Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023
3. Д.Худайназарова Ўзбекистон тўқимачилик саноати корхоналарида рискларни сўндириш мақсадида динамик имкониятларини баҳолаш - Iqtisodiyot va ta'lim, 2023
4. Shah D. Impact of Digital Technologies on the Textile Industry. April 2023
4. <https://www.fibre2fashion.com/industry-article/9622/impact-of-digital-technologies-on-the-textile-industry>
5. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>
6. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>
- 7 Martino, Giada & Fera, Marcello & Iannone, Raffaele & Miranda, Salvatore. (2017). Supply chain risk assessment in the fashion retail industry: An analytic network process approach. 12. 140-154.
8. Д.Худайназарова Тўқимачилик саноати корхоналарида рискларни пасайтириш механизмлари самарадорлигини прогнозлаштириш
9. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси 8 (2), 152-158
10. Д.Худайназарова Korxonalarda risklarni baholash va tahlil qilishning xorij tajribasi Iqtisodiyot va ta'lim 25 (1), 323-329

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA DUNYOQARASH VA DINIY DUNYOQARASH MASALASI

Roʻzaliyev Bexzodjon Avazjonovich
Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya: Globallashuv sharoitida diniy dunyoqarash transformatsiyasi axborotlashgan jamiyat muhitini barqarorlashtirishning muhim omili sifatida dolzarblik kasb etmoqda. Diniy-maʼrifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirish boy ilmiy-tarixiy merosimizni oʻrganish va targʻib qilish, shu bilan birga, dunyoda roʻy berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlilini taqozo etmoqda. Maʼrifatparvarlik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik, bagʻrikenglik kabi ezgu fazilatlar va milliy qadriyatlarimizni keng targʻib qilish, jamiyatda ijtimoiy-maʼnaviy muhit barqarorligini taʼminlashda diniy-maʼrifiy sohani chuqur tadqiq etish ahamiyatini oshiradi.

Kalit soʻzlar: din, dunyoqarash, diniy dunyoqarash, jaholat, maʼrifat, ezgulik, tinchlik

Oʻzbekistonda yangi bir uygʻonish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratish harakati jamiyatda barqaror ijtimoiy-maʼnaviy muhitni taʼminlash dolzarbligini, bu oʻz navbatida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash eng asosiy va

muhim masala ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyat a'zolarining intilishlari va orzu-umidlarini o'zida mujassamlashtirgan, ularni hayotiy mo'ljallar bilan qurollantiradigan, ezgu maqsadlar sari safarbar etadigan diniy dunyoqarash atroflicha o'rganish ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri tahlil qilishga zamin hozirlaydi. Bu diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari, uning jamiyat hayotiga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy muammoga aylanganini ko'rsatadi.

Dunyoqarash o'zining aniq tarkibiy qismlari bo'yicha sodda so'z bo'lib, "dunyoga qarash", "dunyo haqida tasavvurga ega bo'lish". G'arb dunyosida bu termin ilk marta Immanuil Kant o'zining "Kritik der Urteilstkraft" – Hukmni tanqid qilish asarida "Weltanschauung[1][2]" so'zini "dunyoni kuzatish tuyg'usi" ma'nosini ifodalash, ya'ni tabiatni idrok etish uchun ishlatgan. "Welt" – bu dunyo, "anschauung" – qarash[3][4] ma'nolarini ifodalaydi. Ingliz tilidagi lug'atlarda "Worldview" – bir guruh yoki bir shaxs tarafidan qabul qilingan dunyoni idrok etish (perception of the world), hayotga qarash (view of life), hayot falsafasi (philosophy of life), dunyoni tasavvur etish, olam va insonning bu olam bilan bo'lgan aloqasiga doir tushuncha, umumiy qarash va tushunish shaklida[5][6] ta'riflanadi. Shuningdek, ingliz tilida "world outlook" so'zi hayotga doir umumiy munosabat, hayot haqidagi fikr, hayotga bo'lgan nuqtai nazar (perspective), zehniyat, fikrlash tarzi, kelajak tasavvuri tushunchasini ifodalaydigan shaklda dunyoqarash[7][8] o'rnida ishlatiladi. Demak, nemis va ingliz tillaridagi iboralar bir xil ma'noni ifodalaganini ko'rishimiz mumkin.

Dunyoqarash – bu ijtimoiy va individual ongning murakkab, sintetik, yaxlit ma'lumot olish shaklidir. Uning tavsifi[9] uchun bilimlar, ishonchlar, e'tiqodlar, mohiyatlar, maqsadlar, kayfiyatlar, intilishlar, umidlar, qadriyatlar, normativlar, me'yorlar, ideallar va hokazolar kabi har xil tarkibiy qismlarning mutanosib ravishda mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, har bir individ va jamiyatning umumiy ma'lumot olish shakli bo'lib, shaxs va ijtimoiy ongda hosil bo'lib, shakllanadigan bilimlar asosida hosil bo'luvchi baholar hamda uning natijasida kelib chiqadigan faoliyat dasturi tushuniladi. Shuningdek, kuch o'laroq insonning dunyoga munosabatini belgilab, faoliyatini tartibga solib, uni boshqarib turuvchi qarashlar, baholar, normalar va dasturlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Dunyoqarash – bu ob'ektiv dunyo va undagi shaxs, jamiyat va insoniyatning o'zni, insonning dunyoga, atrofidagi voqelikka va o'ziga bo'lgan munosabati, shuningdek, odamlarning asosiy hayotiy pozitsiyalari, ularning e'tiqodlari, ideallari, baholashlari va majoziy g'oyalari tizimi, bilish va faoliyat tamoyillari, qiymat ko'rsatmalari, qadriyat yo'nalishlari va boshqalar haqidagi qarashlar majmuasi[10][11][12][13][14] hisoblanadi. Demak, dunyoqarash insonning dunyoga bo'lgan munosabati va nuqtai-nazarlari haqidagi umumiy qarashlar tizimi bo'lib, ularga asoslangan har bir individning hayotiy yo'nalishini, tutgan yo'li, fikrini belgilovchi qat'iy ishonch-e'tiqod, his-tuyg'u, bilimlar, ideallar ekani ma'lum bo'ladi. Shuningdek, odob-axloq, fe'l-atvor, muomila kabi insonning o'ziga xos xususiyatlarini belgilashdagi asosiy qonun-qoidalar va qadriyatlarini aniqlab olishida ko'mak beradi.

Dunyoqarash – bu dunyoga, undagi inson o‘rniga, uning olamga va boshqa odamlarga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini belgilab beruvchi, aniqlashtiruvchi va insonning shaxsiy tuzilishini shakllantiruvchi va tashkil etuvchi qarashlar tizimi[15] sanaladi. Demak, har bir inson o‘z munosabatlarida biror nuqtai-nazarga tayanib, shu asosda fikr yuritadi. Shuningdek, insoning ongi, bilimi, qadriyati va faoliyatini belgilab beruvchi qarashlari uning dunyoqarashiga bog‘liq masala hisoblanadi.

Dunyoqarash – bu metafizik tafakkur va tadqiqotlar natijalari majmui bo‘lib, metafizika esa dunyoni bilish shakllarini bir butunlikka birlashtiruvchi fan[16] sifatida tushuniladi. Demak, metafizika fan jihatidan fikrlash, o‘rganish, ilmiy tekshirish va tadqiqotlar natijalarining umumiy tizimi bo‘lib, u dunyoni bilishning barcha formalarini yagona bir butunlikka birlashtiradi. Shuningdek, u inson va dunyoni bilishning barcha shakllarini o‘zida jamlovchi bilim manbai hisoblanadi.

Dunyoqarash – bu individ, sotsial guruh, ijtimoiy sinf yoki umuman jamiyatning voqelikka munosabatini, dunyoni umumiy tushunishni hamda insonlarning hayotiy pozitsiyalari, yo‘nalishlari va faoliyat dasturlarini belgilovchi qarashlar, qadriyatlar, baholar, prinsiplar, ideallar, ishonch-e‘tiqodlar, maslaklar tizimi[17][18] hisoblanadi. Bunda, ikki xarakter namoyon bo‘ladi. Birinchisi, dunyoni umumiy anglab yetib voqelik va borliqqa munosabat bildirish. Ikkinchisi, insonning hayotiy yo‘nalishlari va faoliyat dasturlarini belgilovchi qadriyatlar va ishonch-e‘tiqodlar.

Dunyoqarash – bu insonni o‘rab turgan olam va insonning bu dunyodagi o‘rniga qarashlar yig‘indisi[19][20] sanaladi. Demak, dunyo va undagi hayot haqidagi bilimlar asosiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma‘naviy va moddiy hayotga muhim ta‘sir ko‘rsatuvchi dunyoga bo‘lgan qarashlarning bir butun tizimi sifatida qaraladi.

Dunyoqarash – bu prinsiplar, qarashlar, maslaklarning majmui bo‘lib, ular ayrim kishi, sotsial guruh, sinf yoki umuman jamiyatning faoliyati yo‘nalishini va voqelikka munosabatini[21] belgilaydi. Demak, butun fikrlar va qarashlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy faoliyatni va munosabatni belgilovchi unsur hisoblanadi.

Dunyoqarash – bu insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimi bo‘lib, olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilish[22] tushuniladi. Demak, voqelik, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rni to‘g‘risidagi umumiy tasavvur va qarashlarga asoslangan bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarash – bu dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e‘tiqodlari, ideallari, bilimi va faoliyat tamoyillari[23]ni qamrab oladi. Demak, dunyoga bo‘lgan umumiy qarashlar bo‘lib, unga asoslangan e‘tiqodlar, ideallar, bilimlar va faoliyat tamoyillarini tashkil etadi.

Dunyoqarash bu insonning (va jamiyatning) butun dunyoga, undagi o‘z o‘rniga, insonning o‘z hayotining mazmunini tushunishi va baholashiga qarashlarining umumlashirilgan tizimi va faoliyati, insoniyat taqdiri; kishilarning umumlashgan ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, qadriyat yo‘nalishlari,

ishonishlari, e'tiqodlari va ideallari majmui[24][25]ni qamrab oladi. Demak, har bir individning dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar hayoti va olam to'g'risidagi tasavvurlari, tushunchalari bo'lib, ular natijasida qarashlari shakllanadi. Ana shular muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi.

Shu o'rinda dunyoqarashning ko'lami, mazmuni, markazi yoki tayanch nuqtasi kabi jihatlari borligini ta'kidlab o'tish zarur. Dunyoqarash ko'lami individning butun hayoti mobaynida rivojlanib, kengayib boradi. Dunyoqarash mazmuni esa, individ ongida voqelikning xilma-xil jihatlari qay darajada qamrab olingan ekanini aks ettiradi. Dunyoqarash markazi yoki tayanch nuqtasi deganda, individning qanday shaxsiy hamda ijtimoiy manfaatlar majmuasi doirasidan turib olam haqida fikr yuritishi tushuniladi. Inson o'z hayotida o'zidan ilgari o'tgan kishilarning turmush tajribasiga, to'plagan bilimlariga tayanadi. Dunyoqarash kishilarning axloq me'yorlari, hayotdagi intilishlari, qiziqishlari, mehnat va turmushlariga ta'sir ko'rsatib, katta amaliy ma'no kasb etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytsak, dunyoqarash – bu inson va dunyo haqidagi mavjud qarashlar, nuqtai-nazarlar, fikrlar, mulohazalar tizimidan kelib chiqqan baholar va ishonch-e'tiqodlar bo'lib, ular asosida shakllangan faoliyat dasturidan iboratdir. U dunyo, hayot, ijtimoiy jamiyat, individ to'g'risida umumiy tasavvur xosil qilish va to'liq tushunchaga ega bo'lish bilan xarakterlanadi. Individning odob-axloq normalari va estetik qarashlarini o'z ichiga qamrab oluvchi tushunchalar va g'oyalar, insonning ob'ektiv dunyoda tutgan o'рни, ahvoli, mavqeini batafsil anglab olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Diniy dunyoqarash – bu inson, tabiat va jamiyatning paydo bo'lishi, tuzilishi va kelajagi to'g'risidagi g'ayritabiiy qarashlar va tasavvurlar majmui[26]ni o'z ichiga qamrab oladi. Demak, inson, tabiat va jamiyatning qanday paydo bo'lganligi, ularning tuzilishi va kelajagi haqidagi qarashlar g'ayritabiiylikka tayangan bo'lishi ta'kinlanmoqda.

Diniy dunyoqarash – bu olamdagi voqea va hodisalarning sabablarini ilohiy, g'ayritabiiy kuch bilan bog'lab tushuntirish bo'lib, uning muhim jihatlari diniy e'tiqod, tuyg'u, diniy aqidalarga ishonish, ilohiy kuchlarga sig'inish[27] hisoblanadi. Demak, dunyodagi sodir bo'ladigan voqea-hodisalar sabablarini ilohiy kuch bilan bog'lab tushuntirib beriladi. Shuningdek, diniy e'tiqod va tuyg'u hamda ibodatlarda aks etadi.

Diniy dunyoqarash – bu insonning ilohga va uning qudratiga bo'lgan e'tiqodi bilan bog'liq[28]ligi xarakterli hisoblanadi. Demak, inson qudratli ilohga ishonishi asosida dunyo va inson yaratilganligi anglab yetadi.

Diniy dunyoqarash – bu dunyoni Xudo yaratgan degan g'oyaga asoslanadi. Insonning dunyoqarashi va dunyoni sezishi, shuningdek uning xulq-atvori va hatti-harakatlari olamni yaratgan, odamlar moddiy hamda ma'naviy hayotining barcha jabhalarini ierarxiya bosqichli ko'rinishida tartibga solgan yagona va qudratli Xudoning mavjudligiga bo'lgan qat'iy ishonchga[29]asoslanadi. Demak, dunyoni va undagi hamma narsani Xudoning yaratgan maxluqlari ekanligi, kishilarning faoliyatini tartibga solish uchun o'zining ko'rsatmalirini yuborganligi ta'kidlanmoqda. Shuningdek, dunyo,

hayot, ijtimoiy jamiyat, shaxs to'g'risida diniy ta'limotlarda ta'kidlangan aqidalarga asoslanib umumiy tasavvur hosil qilish va to'liq tushunchaga ega bo'lish bilan xarakterlanadi.

Demak, diniy dunyoqarash – bu inson va dunyo haqidagi mavjud diniy qarashlar, diniy nuqtai-nazarlar, diniy fikrlar, diniy prinsiplar, diniy qonun-qoidalar tizimidan kelib chiqqan diniy baholar va ishonch-e'tiqodlar bo'lib, ularga asoslanib shakllangan diniy faoliyat dasturidan iboratdir. U o'rab turgan butun borliq, voqelik, mavjudot, atrof-muhit bilan insonning munosabat va muomilasini aniqlashida va olamni umumiy tarzda bir butun holda his etishda diniy ta'limotlarga suyangan holda uni dunyogagi o'rnini belgilab olishida yordam beradi. Diniy dunyoqarashning o'ziga xos xarakterli jihatlari quyidagilardan iborat: Aqidalar, ta'limotlar, ibodatlar, marosimlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, ma'lum jamoa-guruhlar, tashkilotlar, insonlararo munosabatlarni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kant I. Kritik der Urteilkraft. – Leipzig: Verlag von Felix Meiner, 1922. –P. 99.
2. Kant I. Asthetische und Religions-Philosophische Schriften. – Leipzig: Inselverlag, 1921. –P. 116.
3. Философский словарь / Общ. ред. М.М.Розенталя. – Москва: Изд. иностранной литературы, 1961. –С. 366, 368.
4. Шанский Н.М. и др. Краткий этимологический словарь русского языка. Пособия для учителя. Изд. 2-е, испр. и доп. Под ред. чл.-кор. АН СССР С.Г.Бархударова. – Москва: “Просвещение”, 1971. –С. 267.
5. Dictionary of Philosophy and Psychology / J.M.Baldwin. Vol. II. – New York: The Macmillan Company, 1920. –P. 822.
6. Pocket Dictionary of Apologetics and Philosophy of Religion / C.Stephen Evans. – Downers Grove, 2002. –P. 124.
7. A Dictionary of Philosophy / M.Rozenthal and P.Yudin. – Moscow: Progress Publishers, 1967. –P. 482-483.
8. A Dictionary of Philosophy / Anthony Flew. – London: The Macmillan Press Ltd, 1979. –P. 344.
9. Радугин А.А. Философия: курс лекций. – 2-е изд., перераб. и дополн. – Москва: Центр, 2004. –С. 13.
10. Философия: учебник / под. ред. проф. А.Н.Чумакова. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2018. –С. 11.
11. Философия: Часть первая: История философии: Учеб. пособие / Под ред. проф. В.И.Кирилова, проф. С.И.Попова, проф. А.Н.Чумакова. – Изд. 2-е, перераб. и доп. – Москва: Юрист, 1999. –С. 7.

12. Философия: Учеб. – 2-е изд., испр. / Н.С.Савкин, В.А.Абрамов, А.И.Белкин и др.; Руководитель автор. коллектива и отв. ред. Н.С.Савкин; Редкол.: В.М.Борискин и др. – Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 2002. –С. 8.
13. Всемирная энциклопедия: Философия / Главн. науч. ред. и сост. А.А.Грицанов. – Москва: АСТ, Минск: Харвест-Современный литератор, 2001. –С. 638.
14. Философский энциклопедический словарь / Гл. редакция: Л.Ф.Иличев, П.Н.Федосеев, С.М.Ковалев, В.Г.Панов. – Москва: Сов. Энциклопедия, 1983. –С. 375.
15. Новейший философский словарь / Сост. А.А.Грицанов. – Минск: Изд. В.М.Скакун, 1998. –С. 425.
16. Философский словарь: Основан Г.Шмидтом. – 22-е, новое, переработ. изд. под ред. Г.Шишкоффа / Пер с нем. / Общ. ред. В.А.Малинина. – Москва: Республика, 2003. –С. 276.
17. Философия / Под ред. С.А.Хмелевской. – Москва: ПЕР СЭ, 2002. –С. 13.
18. Философский словарь / Под ред. И.Т.Фролова. – 7-е изд., перераб. и доп. – Москва: Республика, 2001. –С. 334.
19. Основы философии: Учеб. для высш. учеб. заведений / Под ред. М.А.Ахмедовой и В.С.Хана. 2-е изд., перераб. и доп. – Ташкент: “Mehnat”, 2004. –С. 9.
20. Орлов С.В. История философии. – СПб.: Питер, 2009. –С. 5.
21. Философия луг‘ати / Масъул муҳаррир М.М.Хайруллаев /. – Тошкент: Ўзбекистон, 1976. –Б. 151.
22. Фалсафий масалаларнинг қиёсий таҳлили. – Тошкент, 2007. –Б. 32.
23. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. Гидрофилия-Зебралар. Таҳрир ҳайъати: М.Аминов, Б.Аҳмедов ва б. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б. 382.
24. Спиркин А.Г. Философия: Учебник. – Москва: Гардарики, 2000. –С. 9.
25. Философская энциклопедия. Гл. ред. Ф.В.Константинов. Т. 3. Коммунизм-Наука. – Москва: “Советская энциклопедия”, 1964. –С. 454.
26. Ислом: справочник / М.А.Усмонов таҳрири остида. Қайта ишл. ва тўл. 3-нашри /. – Тошкент: Ўзбек Совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1989. –Б. 96.
27. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. Гидрофилия-Зебралар. Таҳрир ҳайъати: М.Аминов, Б.Аҳмедов ва б. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б. 382.
28. Фалсафа: маъруза матнлари (Назаров Қ. ва бошқалар). – Тошкент: ЎАЖБНТ маркази, 2000. –Б. 31.
29. Фаннинг фалсафий масалалари / И.Саифназаров, Б.Қосимов, Л.Мухторов, Г.Никитченко /. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2007. –Б. 9.